TA’LIM TASHKILOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo’latovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” fakulteti “Maktabgacha ta’lim”
kafedrasi stajyor o’qituvchisi
+99877-257-72-68
mohlaroyahmadaliyeva72@gmail.com

Usmonova Gavhar Nurmahmat qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20376794

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimi tashkilotida psixologik xizmatni tashkil etishning mazmuni, maqsadi va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Unda psixologik xizmatning tarbiyalanuvchi-yoshlar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning emotsional holatini barqarorlashtirish, o‘qituvchilar hamda ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada ta’lim tashkilotida psixolog faoliyatining tashkiliy-me’yoriy asoslari, amaliy yo‘nalishlari hamda zamonaviy yondashuvlar orqali bu sohaning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, ta’lim tizimi, psixoprofilaktika, psixologik korreksiya, innovatsion ta’lim, deviant xulq,atvor, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, bullying profilaktikasi, kasbga yo‘naltirish, psixodiagnostika, emotsional intellekt, raqamli psixologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность, цели и значение организации психологической службы в образовательных учреждениях. Освещается роль психологической службы в всестороннем развитии личности учащихся, стабилизации их эмоционального состояния, а также в налаживании эффективного сотрудничества между учителями и родителями. Кроме того, в статье анализируются организационно-нормативные основы деятельности психолога в образовательных учреждениях, практические направления его работы и вопросы повышения эффективности данной сферы посредством современных подходов.
Ключевые слова: психологическая служба, психопрофилактика, психологическая коррекция, инновационное обучение, девиантное поведение, инклюзивное образование, социально-психологическая адаптация, профилактика буллинга, профориентация, психодиагностика, эмоциональный интеллект, цифровая психология.

Annotation: This article discusses the essence, goals, and significance of organizing psychological services in educational institutions. It highlights the role of psychological servicesin the comprehensive development of students’ personalities, the stabilization of their emotional state, and the establishment of effective cooperation between teachers and parents. In addition, the article analyzes the organizational and regulatory foundations of psychologists’ activities in educational institutions, the practical directions of their work, and issues of improving the effectiveness of this field through modern approaches.

Keys words: psychological service, psychoprophylaxis, psychological correction, educational psychology, innovative education, deviant behavior, inclusive education, socio-psychological adaptation, bullying prevention, vocational guidance, psychodiagnostics, emotional intelligence, digital psychology, mental health in schools.

KIRISH

Psixologik xizmat insonning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ichki muvozanatni saqlash va hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. U shaxsiy rivojlanish, stresslarni yengish va hayotiy qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun professional ko'mak beradi.

Jahon psixologiyasida psixologik xizmatni tashkil etish muammosini o‘rganishga alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Psixologik tadqiqotlarda pedagog psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo‘lidan kelgan ishlarni ijtimoiy psixologik xizmatni va uning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda psixologik xizmatni tashkil etishning turli usullari va zamonaviy texnologiyalarini ifodalovchi psixologik mexanizmlarni qo‘llash hamda joriy etish masalasining muhimligiga e’tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda psixologik xizmatni tashkil etish personallardagi muammolarni bartaraf etish kabi holatlar dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar Andreeva G.M, Davletshin M.G,Zabrodin,Yu.M.Karnegi, D.Karimova, V.M.Parigin, B.D. Shoumarov, G’.B.G’ozievlar tomonidan o‘tkazilgan. Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an’analari bilan bog‘liq insonning amaliy psixologiyasini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a’zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqarrarligini talab qiladi. Bu borada iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim. Zamonaviy psixologik xizmatda ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Psixolog tomonidan o‘tkaziladigan seminar-treninglar, psixologik ma’ruzalar va maslahatlar orqali ota-onalarning psixologik savodxonligi oshiriladi. Bu esa bolani tarbiyalash va ta’lim jarayonida yagona yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.Shuningdek, raqamli texnologiyalar psixologik xizmatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Onlayn maslahatlar, masofaviy psixologik yordam, ijtimoiy tarmoqlar orqali profilaktik ishlar olib borish bugungi kun talabi hisoblanadi. Bunday usullar ayniqsa o‘smirlar bilan ishlashda qulay va samarali bo‘lib, ularning ochiq muloqotga kirishishini osonlashtiradi.Ta’lim sohasida psixologik xizmatni zamonaviy usullar asosida tashkil etish bolalarningpsixologik salomatligini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish va sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va kompleks hamkorlik asosida olib borilgan psixologik xizmat ta’lim tashkilotining samarali faoliyat yuritishida muhim omil bo‘lib qolmoqda.Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta’minlovchi oqilona, zarur shart-sharoitlar, omillar, qulay vaziyat va muhit yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta’sir o‘tkazish obyekti maktabgacha yoshdagi bolalar, umumiy o‘rta ta’lim tarbiyalanuvchilari, maxsus o‘quv yurtlari va oliy o‘quv tashkiloti talabalari, o‘qituvchilar hamda ota-onalar hisoblanadi.Tadqiqot obyektiga kirgan shaxslarni yakka tartibda, guruhiy yoki jamoaviy shaklda o‘rganish mumkin. Psixologik xizmatning mazmuni psixoprofilaktika, psixologik ma’rifat va maorif, psixodiagnostika, psixik rivojlantirish va psixokorreksiya hamda psixologik konsultatsiyadan iborat.

TADQIQOT VA METODLAR

Psixologik xizmatlar psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayoniga faol ta’sir o‘tkazishni talab etadi. Xalq ta’limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan qoida va mezonlar asosida tashkil etish, yosh davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi va shaxs shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etishdan iboratdir.Tadqiqot olib borish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, mavzuga oid adabiyotlar, tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez tamoyillaridan foydalaniladi.Psixologik ishlar majmuasi tarbiyalanuvchilarni ta’lim tashkilotida o‘qitish jarayonida psixologik-pedagogik jihatdan chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning individual xususiyatlari hamda ta’lim-tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini aniqlashga xizmat qiladi.Diagnostik ishlar yakka tartibda yoki guruhiy shaklda amalga oshiriladi. Amaliy psixolog yosh davr taraqqiyotining muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash, tarbiyalanuvchilar va talabalarni psixologik tekshiruvdan o‘tkazish, o‘qituvchilarning kasbiy layoqati va shaxsiy sifatlarinin baholash bilan shug‘ullanadi.Psixolog bolalarningqiziqishlari, mayllari, iqtidorini o‘rganadi, ularga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yadi, trening mashg‘ulotlari o‘tkazadi. Shuningdek, xulq-atvoridagi kamchiliklar, aqliy va psixik rivojlanishdagi muammolar sabablarini aniqlaydi.Psixolog boshqa soha mutaxassislari bilan hamkorlikda differensial diagnostika olib boradi, deviant xulq-atvor, giyohvandlik, alkogolizm, huquqbuzarlik holatlarining ijtimoiy-psixologik omillarini tahlil qiladi.Psixolog o‘zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning tarbiyalanuvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat xususiyatlariga, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta’minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablarini psixologik-pedagogik korrektsiya qilish yo‘llarini aniqlaydi. Bunda:

–ta’lim tashkilotida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali tarbiyalanuvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

–bolalarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish;

–turli yosh davrlarida bolalarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;

–tarbiyalanuvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

–pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llabquvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

–iste'dodli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, ularning individualpsixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

–axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

–pedagog xodimlar, tarbiyalanuvchilar hamda ota-onalarning psixologikpedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash. Yangi O‘zbekiston o‘zo‘zidan qurilmaydi. Buning yo‘lida barcha fuqarolar, hamma yosh-u qari birdek o‘z hissasini qo‘shishi kerak.Yurt tinchligini himoya qilish va yangi taraqqiyotga erishishida har bir soha vakillari o‘z sohasi doirasida hissa qo‘shishlari lozim.

I.G.Kolesnikovaning ta'limotiga ko‘ra, ta'lim muhitida psixologik konsultatsiya ishlarini olib borishda psixolog mutaxassis quyidagi ishlarni olib boradi:

1. Bolalar, o‘qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, direktor, rektor, mudir, o‘qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga aniq, ilmiy asoslangan maslahatlar berish;

2.Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o‘zaro munosabat,muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;

3.Ma'muriyatga, bolalar, tarbiyalanuvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo‘yicha bolalar, tarbiyalanuvchilar, talabalarning psixik o‘sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o‘g‘il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g‘amxo‘rlik va vasiylik to‘g‘risidagi qabul qilgan qarorga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim;

4. Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o‘zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo‘yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi;

5. Yangi tipdagi maktablarga o‘rta-maxsus va kasb-hunar kolleji tarbiyalanuvchilari, akademik lisey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to‘g‘risida ilmiy – amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish, yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Amaliyotchi psixologning diagnostik - korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qiladi. Bu jarayon birinchi bo‘lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o‘rganishga bag‘ishlangan pedalogik tadqiqotlarda tadqiqotchi T.I.Chirkova o‘zining "Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyoti" nomli o‘quv qo‘llanmasida, muammoli shaxslar bilan ishlashda qo‘llaniladigan psixoprofilaktikaning uch bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

Birinchi bosqich dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog‘ bolalar uchun bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab oladi.

Ko‘pchilik mualliflarning ta’kidlashicha, maktab psixik sog‘liq profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o‘tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

Ikkinchi bosqich profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi – o‘qishdagi va xulq - atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqichda ota-onalar va o‘qituvchilarga maslahatni ham o‘z ichiga oladi bolaning o‘qishi o‘zgarishi uchun ta’lim uslubini o‘zgartirish.

Uchinchi bosqich psixolog o‘qishdagi va xulq - atvordagi yaqqol ko‘rinib turadigan muammolari bor bolalarga o‘z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi - jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo‘qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya’ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va bolalarning asosiy qismi psixolog e’tiboridan chetda qolib ketadi. Hozirgi amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni psixik sog‘liq xizmati sifatida faoliyat ko‘rsatishning tarafdori bo‘lib chiqmoqdalar.

NATIJA

Mutaxassislar va jamoatchilik fikriga ko'ra, psixologik xizmatning asosiy vazifalari va ahamiyati quyidagilardan iborat:

Mavjud muammolarni yechish (Konsultatsiya): Shaxsiy nizolar, tushkunlik, xavotir va stress holatlarini professional tarzda bartaraf etish.

Psixoprofilaktika: Ruhiy zo'riqishlarning oldini olish va insonning ruhiy barqarorligini tarbiyalash.

Psixodiagnostika: Insonning qiziqishlari, xarakteri, aqliy salohiyati va kasbiy moyilligini maxsus testlar orqali aniqlash.

Psixokorreksiya: Salbiy odatlar, qo'rquvlar va xulq-atvordagi og'ishlarni maxsus mashqlar yordamida to'g'rilash.

Bu kabi ish jarayonlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida,maktab,oliy ta’lim muassasalari,tashkilot va korxonlarda keng qo’llanib kelinmoqda.

Ta'lim va jamiyatdagi o'rni:

Psixologik xizmat ta'lim tizimida (maktablar, universitetlar) o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va kasb tanlashiga yordam berishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda jamiyatda psixologlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, bu esa odamlarning o'z ustida ishlashga va ruhiy gigienaga bo'lgan madaniyati yuksalayotganidan dalolat beradi

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixologik xizmatda so‘nggi bosqich sanalgan psixoprofilaktik chora-tadbirlarning asosiy maqsadi har bir yosh bosqichida insonningshaxs sifatida to‘laqonli shakllanishi, uning aqliy, emotsional va ijtimoiy jihatdan barkamol rivojlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bunday chora-tadbirlar tarbiyalanuvchi-yoshlarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va motivatsion omillarini inobatga olish orqali sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixoprofilaktika inson psixikasidagi muammolarni erta aniqlash, ularning oldini olish va psixologik barqarorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Demak, psixologik xizmat faoliyatining ushbu bosqichi ta’lim tashkilotida sog‘lom, faol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Ta’lim tizimidagi psixologik xizmatlar bolalarning turli ehtiyojlarini qondirish va ularning umumiy farovonligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Akademik yordam ko'rsatish, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish va tarbiyachilar bilan hamkorlik qilish orqali psixologlar inklyuziv va qo'llab quvvatlovchi ta’lim tarbiya muhitini yaratishga hissa qo'shadilar. Kelajakdagi tadqiqotlar to'siqlarni bartaraf etishning samarali strategiyalarini aniqlashga va ta'lim tashkilotida

psixologik xizmatlarning mavjudligi va sifatini oshirishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Psixologik xizmat haqida Nizom.1996
2. Z.T.Nishanova. Psixologik xizmat. "Yangiyul poligraph service" M CHJ, 2007. 3-4betlar.
3. Z.T.Nishanova, M.Xolnazarova. Psixologik xizmat.Toshkent – 2017. 6;13,14-betlar.
4. https://lex.uz/ru/docs/-417140?ONDATE2=05.04.2022&action=compare. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tarbiyalanuvchilarni psixologik pedagogik qo'llab quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaror. 577-сон 12.07.2019.
5. Toxirjon, U. (2024). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRNI O'RGANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 22-27
6. Barotov Sh.R. Ta'limda psixologik xizmat. O'quv qo'llanma .Buxoro 2007 y.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999y
8. Tadjieva S.X. Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". Toshkent.: RBIMM, 2011 y. 142 b